



Tadbirkorlik faoliyatida mulkiy huquqlarni himoya qilishning dolzarb masalalari

Diana Tursinbaeva Polat qizi

Qoraqalpoq davlat universiteti

Huquq va biznes 2-kurs magistranti

Annotasiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyatida mulkiy huquqlarni himoya qilishning huquqiy asoslari, dolzarb muammolari va ularni hal qilish bo‘yicha chora-tadbirlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: mulkiy huquqlar, tadbirkorlik faoliyati, huquqiy himoya, iqtisodiy erkinlik, sud tizimi, korrupsiya.

Аннотация: В данной статье анализируются правовые основы защиты имущественных прав в предпринимательской деятельности в Республике Узбекистан, актуальные проблемы и меры по их решению.

Ключевые слова: имущественные права, предпринимательская деятельность, правовая защита, экономическая свобода, судебная система, коррупция.

Abstract: This article analyzes the legal framework for protecting property rights in entrepreneurial activity in the Republic of Uzbekistan, pressing issues, and measures to address them.

Key words: property rights, entrepreneurial activity, legal protection, economic freedom, judicial system, corruption.



Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 05-oktyabrdagi “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risi”dagi PF-4848 sonli farmonida tadbirkorlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirish, huquqiy va institusional kafolatlarni mustahkamlash, tadbirlar va davlat organlari tomonidan tadbirkorlik faoliyatiga noqonuniy aralashuvlarning oldini olish mexanizmlarini ishlab chiqishdek muhim vazifalar belgilab o‘tilgan. (1)

O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyati mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi va aholi farovonligini oshirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Tadbirkorlarning mulkiy huquqlarini himoya qilish esa iqtisodiy erkinlik, bozor munosabatlarini rivojlantirish va xorijiy investisiyalarni jalb qilish uchun muhim shartdir. Shu bilan birga, tadbirkorlik sohasida mulkiy huquqlarning buzilishi tadbirkorlik sohasida mulkiy huquqlarning buzilishi bo‘yicha muammolar hali ham dolzarb hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ilmiy adabiyotlarda tadbirkorlik faoliyatida mulkiy huquqlarni himoya qilish masalalari to‘g‘risida tadqiqotlar o‘rin olgan. Bu sohada Abduqahhor Xolbótaev, Rustam Xodjaev, Murod Aliyev, Dilshod Juraev, Shavkat Ergashev, Olimjon Rahmatov va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqotlari diqqatga sazovordir. Ularda Ózbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish va samarali mexanizmlarni ishlab chiqish bóyicha chuqur yondashuvlar va tavsiyalar berib o‘tilgan.

Mazkur maqolada tadbirkorlik faoliyatida mulkiy huquqlarni himoya qilish muammolarini tahlil qilish uchun normativ tahlil, qiyosiy tahlil, mantiqiylik, tizimlilik singari usullardan foydalanildi.

Xususan, tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini himoya qilish bo‘yicha davlat siyosatining dolzarb vazifalari sifatida quyidagilar belgilangan:



1. Xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash. (2)
2. Tadbirkorlik faoliyatiga noqonuniy aralashuvlarni oldini olish.
3. Sud tizimi orqali tadbirkorlarning huquqlarini tiklash mexanizmlarini takomillashtirish.

Mulkiy huquqlarni buzilishiga olib keluvchi omillarga ma'muriy aralashuvlar (davlat idoralarining noqonuniy tekshiruvlari yoki mulkka noqonuniy egalik qilish holatlari kuzatilishi), sud tizimi samaradorligi pastligi (ayrim holatlarda sud jarayonlari uzoq davom etishi), korxonalaridagi korrupsion holatlar va boshqa holatlarni misol qilsak bôladi.

Muammolarni hal qilish yo'llari

Yuqoridagi kabi muammolarga yechim tariqasida tadbirkorlik faoliyatida mulkiy huquqlarni samarali himoya qilish uchun quyidagi choralar amalga oshirilishi zarur:

1. Sud tizimini takomillashtirish: Sudlarning mustaqilligini oshirish, fuqarolik ishlari bo'yicha tezkor va adolatli qarorlar qabul qilinishini ta'minlash.
2. Korrupsiyaga qarshi kurash: Davlat idoralarida shaffoflikni ta'minlash va korrupsiya xavfini kamaytirish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish.
3. Huquqiy savodxonlikni oshirish: Tadbirkorlar uchun trening va seminarlar tashkil etish, huquqiy maslahat xizmatlarini kengaytirish.
4. Xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash: Xususiy mulkning daxlsizligi bo'yicha qat'iy kafolatlar yaratish va tadbirkorlar uchun davlat himoyasini kuchaytirish v.b

Tadbirkorlik faoliyati subyektlarining davlat organlari, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar, banklar bilan ôzaro munosabatlarida tadbirkorlik faoliyati subyekti huquqlarining ustuvorligi prinsipi amal qilib, unga muvofiq qonun hujjatlarida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bogliq holda yuzaga keladigan barcha bartaraf etib bôlmaydigan ziddiyatlar va noaniqliklar tadbirkorlik faoloyati subyektining foydasiga talqin etiladi. (3)



Xulosa

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytganda, tadbirkorlik faoliyatida mulkiy huquqlarni himoya qilish O‘zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishi uchun muhim omildir. Mazkur huquqlarning ishonchli himoyasi tadbirkorlik muhitini yaxshilash, investitsiya jalb qilish va aholining tadbirkorlikka bo‘lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi. Kelgusida huquqiy asoslarni mustahkamlash va amaliy chora-tadbirlarni kuchaytirish orqali mulkiy huquqlarning himoyasini yanada samarali amalga oshirish mumkin bo‘ladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 05-oktyabrdagi “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risi”dagi PF-4848 sonli farmoni Manba: <https://lex.uz/docs/-3039311>
2. O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 19-iyuldagi “ Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida” gi ÓRQ-336 sonli qonuni. Manba: <http://lex.uz/docs/-2055680>
3. Askarov J. Biznes huquqi. Óquv qóllanma. –T.-Toshkent davlat yuridik universiteti, 2024. –B. 83-84